



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING MAKTABGACHA  
TA'LIM RIVOJLANISH MARKAZLARI FAOLIYATIDAGI O'RNI**

**Azimova Durdonaxon Dilmurodjon qizi**

*Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)  
yo'nalishi I-bosqich magistranti  
Email. [durdonaxonazimova474@gmail.com](mailto:durdonaxonazimova474@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar asosida STEAM yondashuvini qo'llagan holda tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni va natijalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida bolalarning bilish faolligi, ekologik madaniyati, ijodiy fikrlashi va nutqiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar ushbu yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, maktabgacha ta'lim, rivojlanish markazlari, interaktiv metodlar, STEAM, tajriba-sinov, rivojlantiruvchi markazlar, ekologik tarbiya, ijodkorlik, nutq rivoji.

2017 yil 20 aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari qatorida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish asosida yanada takomillashtirish masalasi ham joy olgan. An'anaviy ta'lim talaba-yoshlarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatsa, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari esa bilim oluvchilarni o'rganayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni, o'zlari izlanib topishlariga, mustaqil o'zlashtirib, tahlil qilib shaxsiy mulklariga aylantirishga chorlaydi. Bunda pedagog yo'naltiruvchi, boshqaruvchi funksiyasini o'tab, o'quvchi-talabalarning shaxsini shakllanishi, rivojlanishi, bilim olish dunyoqarashini tarkib topishiga sharoit, imkoniyat yaratadi. Zamonaviy texnologiya deyilganda zamon talablarini qondira oladigan, uni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotini tezlashtira oladigan texnologiyani tushunmoq darkor. Zero, zamonaviy texnologiya asosini innovatsiya (inglizcha innovation – yangilik, yangilik yaratish) termini tashkil etadi. Shu ma'noda innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda pedagog va talaba faoliyatiga o'zgartirishlar, yangilik kiritishni anglatadi va o'quvchi madaniyati hamda ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim rivojlanish markazlari faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin egallaydi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ularning intellektual va ijodiy rivojlanishini



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



ta'minlashga xizmat qiladi Zamonaviy pedagogik texnologiyalar rivojlanish markazlarida ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasiga mos metodlarni qo'llash orqali ularning mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, mazkur texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoniga interaktiv metodlar, jumladan o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish va loyiha asosida o'qitish keng joriy etiladi. Bu metodlar bolalarning faolligini oshirib, bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlarida ham bolalarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish zarurligi ta'kidlangan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo'lgan STEAM ta'lim texnologiyasi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bolalarda integrativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Yakman tomonidan ilgari surilgan STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali samarali natijalarga erishishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodlari va tashkil etilishi

Tajriba-sinov ishlari maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlantiruvchi markazlari asosida tashkil etildi. Bu yondashuv Maria Montessori ta'lim tizimida ilgari surilgan bolaga yo'naltirilgan muhit konsepsiyasiga hamohangdir.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

amaliy tajriba

didaktik o'yinlar

kuzatish

suhbat va savol-javob

ko'rgazmali hamda multimedia vositalari

Mashg'ulotlar davomida suvni filtrlash, vulqon otilishini modellashtirish, chiqindilarni saralash, "sehrli rasm" yaratish, konstruktor asosida shahar qurish hamda nutqni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari

Pedagogik kuzatishlar va diagnostik baholash natijalariga ko'ra bolalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, ularning bilish faolligi, ekologik madaniyati va ijodiy fikrlash darajasi oshdi.

Xulosa qilib aytganda rivojlantiruvchi markazlar asosida STEAM yondashuvini qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ekologik madaniyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сонли «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
4. Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonun
5. Yakman, G. (2008). STEAM Education Framework
6. Montessori, M. (1912). The Montessori Method